



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


| | |
|---|-----|
| 1. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ..... | 5 |
| 2. Ражабова Хулкар Тошмановна ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ..... | 14 |
| 3. Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR..... | 22 |
| 4. Саидова Нигорахон Акмал кизи ПРАВОВАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ ОПЕРАТОРОВ ОНЛАЙН-МАРКЕТПЛЕЙСОВ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДОКТРИНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ..... | 35 |
| 5. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ЗАЕМЩИКОВ В МИКРОКРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ..... | 46 |
| 6. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 55 |
| 7. Adembayev Aralbay Kuralbayevich TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH..... | 62 |
| 8. Акбутаев Ойбек Бакирович ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ УМУМИЙ ШАРТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ..... | 70 |
| 9. Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон кизи ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ ЗАДЕРЖАНИИ..... | 79 |
| 10. Yadgarov Shohruh SHANXAY NAMKORLIK TASHKILOTI: XALQARO HUQUQ SUBYEKTLILIGI, HUQUQIY MAQOMI..... | 86 |
| 11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR..... | 92 |
| 12. Primov Baxtiyor Olim o'g'li SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI..... | 103 |



Primov Baxtiyor Olim o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Sud hokimiyati, advokaturava huquqni muhofaza
qiluvchi organlar sho‘basi o‘qituvchisi,
yuridik fanlar falsafa doktori (PhD)
E-mail: orbkazy@gmail.com

SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI

For citation: Primov Baxtiyor Olim ugli. SPECIFIC FEATURES OF PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS IN INTERNAL AFFAIRS BODIES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20377802>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish masalalari milliy qonunchilik va xorijiy ilg‘or tajribalar asosida tahlil etiladi. Maqolada, Prezidentning 2024-yil 12-fevraldagi PF–39-son Farmoniga asoslanib, sud tizimidagi korrupsiyaviy xavflar, sudyalar faoliyati ustidan nazorat mexanizmlari, shaffoflik va ochiqlik masalalari o‘rganilgan. AQSh, Germaniya, Singapur va Fransiya kabi davlatlar tajribasi solishtirilib, O‘zbekiston uchun samarali modellar ishlab chiqish baarobarida ijobiy natijalarga erishish mumkinligi bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: sud tizimi, korrupsiya, odil sudlov, shaffoflik, profilaktika, raqamlashtirish, sud islohoti.

Примов Бахтиёр Олим угли,
Преподаватель кафедры судебной власти,
адвокатуры и правоохранительных органов,
Ташкентского государственного юридического университета
доктор философии по юридическим наукам (PhD)
E-mail: orbkazy@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ И ЕЁ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются вопросы борьбы с коррупцией в судебной системе и её предупреждения на основе национального законодательства и передового зарубежного опыта. В исследовании, опираясь на Указ Президента № ПФ–39 от 12 февраля 2024 года, изучены коррупционные риски в судебной системе, механизмы контроля за деятельностью судей, а также вопросы прозрачности и открытости. На основе сравнительного анализа опыта таких стран, как США, Германия, Сингапур и Франция, обосновывается возможность разработки эффективных моделей для Узбекистана и достижения положительных результатов

Ключевые слова: судебная система, коррупция, правосудие, прозрачность, профилактика, цифровизация, судебная реформа.

Primov Baxtiyor Olim ugli,
Lecturer at the Department of Judicial Authority,
Advocacy and Law Enforcement Bodies
of Tashkent State University of Law
Doctor of Philosophy in Law (PhD)
E-mail: orbkazy@gmail.com

SPECIFIC FEATURES OF PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

ANNOTATION

This article analyzes issues of combating corruption in the judicial system and its prevention based on national legislation and advanced foreign experience. In the article, based on Presidential Decree No. PF-39 dated February 12, 2024, examines corruption risks in the judicial system, mechanisms for monitoring judges' activities, as well as issues of transparency and openness. By comparatively analyzing the experience of countries such as the USA, Germany, Singapore, and France, the article highlights the possibility of developing effective models for Uzbekistan and achieving positive outcomes.

Keywords: judicial system, corruption, justice, transparency, prevention, digitalization, judicial reform.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi huquqiy asoslar, mamlakatning demokratik taraqqiyoti va huquqiy davlat qurish maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich shakllangan bo'lib, ayniqsa sud hokimiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar alohida ahamiyatga egadir. Bu hujjatlar tizimida Konstitutsiyaviy asoslar, maxsus qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari muhim o'rin tutadi. Har bir hujjatning mazmuni va amaldagi natijalari sud tizimining shaffofligi, mustaqilligi va adolatli ishlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ negizini tashkil etadi. Xususan, Konstitutsiya XXIII bobi ya'ni 130-moddasidan 140-moddasigacha bo'lgan normalar orqali sud hokimiyatining mustaqilligiga, sudyalar daxlsizligiga va ularning faqat qonunga bo'ysunishiga kafolat beriladi [1]. 112-modda asosida sudyalar o'z faoliyatida

mustaqil bo'lib, ularning ustidan hech qanday bosimga yo'l qo'yilmasligi belgilangan. Bu esa sud tizimida korrupsiya holatlarining tarqalishiga qarshi eng birlamchi konstitutsiyaviy to'siq hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy asoslardan tashqari, 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-419-son) milliy huquqiy tizimda ushbu masalaga bag'ishlangan eng muhim maxsus normativ hujjatdir [2]. Ushbu qonun Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan bo'lib, unda korrupsiyaning aniqlanishi, unga qarshi kurashish va uning oldini olish choralari bir butun yondashuv asosida belgilab berilgan. Sud tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qoidalar aynan ushbu qonunning 15-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, sud organlarida etika kodekslarining joriy qilinishi, jamoatchilik nazoratining yo'lga qo'yilishi va ochiqlik prinsiplarining kuchaytirilishi talab etiladi. Bu esa korrupsiya holatlarining faqat jazolash orqali emas, balki oldini olish, profilaktika qilish orqali bartaraf etilishini ko'zda tutadi.

Mazkur qonunning amaliy natijalaridan biri sifatida, davlat organlari, jumladan, sudyalar faoliyati ustidan monitoring va baholash mexanizmlari ishlab chiqildi. Shu asosda 2021–2022-yillar davomida sud tizimida korrupsion xavf tahlili o'tkazilib, eng zaif bo'g'inlar aniqlangan. Bu esa davlat

tomonidan sud tizimini takomillashtirish, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘lida tizimli va huquqiy asosga ega bo‘lgan yondashuvni yuzaga keltirdi.

Shuningdek, 2020-yil 29-iyun kuni Prezident tomonidan imzolangan “PF– 6013-sonli Farmon – “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi hujjat orqali davlatning barcha tarmoqlarida, xususan, sud tizimida ham korrupsiyani ildizi bilan yo‘q qilish uchun aniq mexanizmlar joriy etildi[3]. Farmonda sudyalarni tanlash, tayinlash, ularning faoliyatini baholash jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda jamoatchilik nazorati asosida korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish kabi vazifalar belgilanadi. Ayniqsa, Farmon asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlari kengaytirildi va sud tizimidagi profilaktika mexanizmlariga ustuvorlik berildi.

Korrupsiyani bartaraf etishda huquqiy asoslarning amaliy qiymatini oshirish uchun normativ-huquqiy hujjatlar samaradorligi ham muhim omildir. Shu bois, 2021-yilda Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Nizom orqali barcha qonun va farmonlar korrupsiyaviy xavflarga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishi belgiland [4]. Bu esa qonunlar darajasida korrupsiya xavfi tug‘ilishi ehtimolini oldindan aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Umuman olganda, yuqorida sanab o‘tilgan asosiy normativ hujjatlar sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkam va izchil huquqiy infratuzilmasini shakllantirgan. Ular orqali faqat jazolovchi emas, balki oldini oluvchi, profilaktik va monitoring asosidagi mexanizmlar joriy etilgan bo‘lib, sudyalarning mustaqilligi, ochiqligi va javobgarligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, milliy qonunchilikda mavjud normativ asoslar O‘zbekiston sud tizimini korrupsiyadan xoli, ishonchli va adolatli tizimga aylantirish yo‘lida fundamental asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional va normativ asoslarini mustahkamlash borasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar so‘nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, 2021–2023-yillar davomida Prezident, Oliy Majlis, Adliya vazirligi va boshqa vakolatli tuzilmalar tomonidan qabul qilingan yangi farmonlar, qarorlar va qonun hujjatlari, ularning sud hokimiyati bilan bevosita aloqador moddalari korrupsiya xavfini keskin kamaytirishga qaratilgan. Ushbu normativ aktlar korrupsiyaning ildiziga qarshi kurashishda tizimli monitoring, raqamli boshqaruv, axborot ochiqligi, professional etikani takomillashtirish kabi mexanizmlarni o‘z ichiga oladi.

Xususan, 2021-yil 6-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6257-sonli Farmoni – “Korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichiga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” hujjati, davlat xizmatining barcha sohalarida, xususan, sud tizimida ham korrupsion xavflarni tizimli baholash va oldini olish choralari kompleks tarzda belgilab berdi. Farmonda korrupsiyaviy xavfli sohalarda xizmat qilayotgan sudyalarning, sud xodimlari faoliyatiga nisbatan baholash ko‘rsatkichlarini joriy qilish, xizmat yo‘riqnomalarini yangilash, ehtik mezonlar asosida malaka oshirish kurslarini majburiy qilish kabi chora-tadbirlar qat‘iy ifodalangan. Shu farmon asosida 2022-yilda Adliya vazirligi, Oliy sud va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorligida “Sud tizimida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash indikatorlari” loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha doirasida 54 ta xavfli indikator aniqlanib, har bir sud bo‘yicha xavf darajasi monitoring qilinmoqda.

Yana bir muhim hujjat – bu 2022-yil 14-iyulda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Sudyalarning faoliyatini baholash va monitoring qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomdir. Bu tartibda sudyalarning faoliyati ustidan baholash, ular qabul qilgan qarorlarning asoslanganligi, odilligi va fuqarolar ishonchiga bo‘lgan ta‘siri mezonlar asosida muntazam monitoring qilib borilishi belgilandi. Nizomga ko‘ra, sudyalarning faoliyati haqida tegishli tahlilni Oliy sud huzuridagi Sudyalarning oliy kengashi, Adliya vazirligi, hamda Ombudsman institutlari yuritmoqda. Bu esa korrupsiyaviy harakatlarni aniqlashda muhim kriminologik axborot manbasiga aylangan.

Shuningdek, 2021-yil 11-noyabrda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va bartaraf etish metodologiyasi” sud tizimida amaliy qo‘llash uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu metodologiya bo‘yicha sudlarda “korrupsiyaga moyillik darajasi”ni

o‘lchash imkonini beruvchi indikatorlar bazasi shakllantirildi. Ushbu yondashuv asosida bugungi kunda sudlarda xizmat qilayotgan xodimlar faoliyati profilaktik nazorat vositalari orqali baholanmoqda. Metodologiyada “javobgarlik shaffofligi”,

“resurslarga ochiq kirish”, “fuqarolarning ishonchi darajasi” kabi ko‘rsatkichlar asosiy baholovchi mezonlar sifatida belgilangan.

Sud tizimida korrupsiyani oldini olish borasidagi yondashuvlar doirasida 2023-yilda e‘lon qilingan “Adolatli sudlov milliy dasturi – 2023–2026” ham muhim strategik hujjat bo‘ldi. Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda sud tizimining islohotlariga yo‘naltirilgan 45 dan ortiq normativ-huquqiy chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Ular orasida korrupsiyaviy xavfni bartaraf etish uchun: sud jarayonlarining to‘liq raqamlashtirilishi, sud zalida videokuzatuvning majburiyiligi, sud xodimlari uchun malaka attestatsiyasi va jamoatchilik asosida monitoring komissiyalarining joriy qilinishi belgilangan. Ushbu dastur 2024-yildan boshlab pilot shaklida Buxoro, Andijon va Toshkent viloyatlarida tatbiq qilinib, kelgusida butun respublika miqyosida kengaytirilmoqda.

Bundan tashqari, “Sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturi” (2022) doirasida “Sudlar faoliyati ochiqligi reytingi” joriy etilgan bo‘lib, bu reytingning asosiy mezonlari korrupsion holatlarning kamayishi, jamoatchilik ishonchining oshishi, va sud jarayonlarining to‘liq elektronlashtirilgan bo‘lishi kabi indikatorlarga asoslanadi. Bu tashabbus BMT Taraqqiyot Dasturi va GRECO ekspertlari tomonidan ham ijobiy baholangan.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib o‘tilgan normativ-huquqiy hujjatlar milliy qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sud tizimi uchun kuchli institutsional zamin yaratmoqda. Bu hujjatlar sodda qonuniylik bilan emas, balki tizimda raqamli boshqaruv, etik nazorat, xavfni baholash va jamiyat bilan bevosita muloqotga asoslangan ilg‘or yondashuvlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy davlat huquqiy infratuzilmasi qanday bo‘lishi kerakligini amalda namoyon etmoqda.

O‘zbekiston sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning milliy qonunchilik bazasi nafaqat markaziy davlat organlari tashabbuslari orqali, balki hududiy sudlar darajasida ham amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, mukammallashtirib bormoqda. Ayniqsa, viloyat va tuman miqyosidagi sud organlarida joriy etilgan huquqiy tashabbuslar, profilaktik chora-tadbirlar, monitoring shakllari ushbu normativ asoslarning bevosita ishlashini ta‘minlamoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro huquqiy integratsiya doirasidagi majburiyatlar milliy qonunchilikka bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo‘lib, unga ko‘ra, sud tizimidagi mustaqillik, ochiqlik, xizmatni tanlashda meritokratiya tamoyili, hamda jamoatchilik ishtirokidagi baholash tizimlari joriy etilishi lozim. Ushbu xalqaro majburiyatlar asosida 2021-yildan boshlab “yillik korrupsiyaga qarshi milliy hisobot” joriy qilindi, bu esa milliy qonunchilik va xalqaro talablar uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi 2019-yilda Yevropa Kengashining GRECO (Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi) tashkilotiga a‘zo bo‘lganidan so‘ng, aynan sud hokimiyatidagi shaffoflik, sudyalarning faoliyati ustidan jamoatchilik monitoringi, hamda etik kodekslarning amalda bajarilishi bo‘yicha kompleks baholash tizimi joriy etildi. GRECO tavsiyalariga binoan, 2022-yil oxirida “Sud etikasi va manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnoma” ishlab chiqilib, barcha sud xodimlariga majburiy ravishda tarqatildi [5]. Ushbu hujjatda sudyalarning qarindoshlik aloqalari, siyosiy betaraflik, moliyaviy manfaatdorlik kabi jihatlar bo‘yicha deklaratsiya topshirish majburiyati joriy qilingan.

Normativ-huquqiy hujjatlarning yana bir muhim yo‘nalishi - bu ma‘muriy huquqiy aktlar asosida ichki nazorat tizimini shakllantirishga qaratilgan. 2021-yil 4martda qabul qilingan “Sud organlarida ichki audit va nazorat tartibi to‘g‘risida”gi Adliya vazirligi buyruqlari orqali har bir viloyat, tuman va shahar sudi doirasida

“Ichki audit bo‘limlari” tashkil etildi. Ular o‘z navbatida, normativ hujjatlarning amaliy bajarilishini tekshirish, xodimlar faoliyati ustidan ichki monitoring yuritish, moliyaviy hujjatlarda

shaffoflikni ta'minlash bilan shug'ullanadi. Bu ma'muriy asoslar, bevosita qonun bo'lmasa-da, sud tizimida korrupsiyani bartaraf etishda juda samarali vosita sifatida o'zini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yilda sud tizimiga oid muhim ma'muriy hujjatlardan biri sifatida, "Sud xodimlarining xizmat vazifalariga oid harakatlarini tartibga soluvchi nizom" yangilandi. Nizomda korrupsiyaga oid xatti-harakatlarga doir tahdidlar bo'yicha alohida bandlar kiritildi, xususan, sovg'alarni qabul qilish, manfaatlar to'qnashuvi, xizmat avtoritetidan suiiste'mol qilish holatlari qat'iy taqiqlanmoqda. Har bir sud xodimi mazkur nizom bilan tanishganligi haqida yozma ravishda tasdiq beradi va buzilgan taqdirda ma'muriy va hatto jinoyaviy javobgarlikka tortiladi.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish, milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, AQSh va Fransiya kabi konstitutsiyaviy demokratiya va huquqiy davlat prinsiplarini chuqur qaror toptirgan davlatlar tajribasi, ayniqsa, sud tizimi mustaqilligi, etik standartlar va jamoatchilik nazorati asosida tuzilgan profilaktika choralari bilan e'tiborni tortadi. Har ikkala mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolashga emas, balki oldini olishga, shaffoflik va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvorlik qiladi.

AQSh tajribasida korrupsiyaga qarshi kurash asosan federalizm prinsipiga asoslangan bo'lib, federal sudlar va shtat sudlari doirasida turlicha mexanizmlar ishlab chiqilgan. Biroq barcha darajalarda yagona standartlar mavjud: sud hokimiyatining mustaqilligi, sudyalarni hayotining oxirigacha tayinlash (umrboqiylik prinsipi), manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha qat'iy etik qoidalar va moliyaviy ochiqlik talablari. AQSh Konstitutsiyasining III moddasi sud hokimiyatini ijro va qonun chiqaruvchi tarmoqlardan ajratgan bo'lib, sudyalar faqat qonunga va o'z vijdoniga bo'ysunishi kerakligi belgilanadi [6]. Sudyalarni tayinlash jarayoni AQSh Senatida ochiq eshituvlar orqali amalga oshiriladi, nomzodning shaxsiy fazilatlarini, axloqiy obro'si va ilgari sud qarorlariga qilgan yondashuvi baholanadi.

AQShda korrupsiyaga qarshi kurashishning yana bir muhim elementi - bu 1978-yilda qabul qilingan "Ethics in Government Act" qonunidir [7]. Ushbu qonun asosida sudyalar va boshqa yuqori martabali amaldorlar har yili o'z moliyaviy manfaatlarini (aktivlar, qarzlar, daromadlar va sovg'alar) deklaratsiya qilishlari shart. Federal darajadagi "Office of Government Ethics" va "Judicial Conduct and Disability Act" orqali sudyalar xatti-harakatlari ustidan doimiy monitoring olib boriladi. Bu monitoringlar orqali pora olish, manfaatlar to'qnashuvi, noqonuniy lobbi bilan aloqa va xatti-harakatdagi xatolar aniqlanib, Kongress tomonidan sudyani lavozimdan chetlatish - ya'ni impeachment imkoniyati mavjud. Bu tizim orqali adolatli sudlovga erishish kafolatlanadi.

AQShda korrupsiyani oldini olishda shaffoflikka qaratilgan texnologik yechimlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, federal sud qarorlari maxsus ochiq platformalarda (PACER - Public Access to Court Electronic Records) e'lon qilinadi. Har bir fuqaroga sud majlisining steno yozuvlari, protsessual qarorlar va asoslantirishlar bilan tanishish imkoniyati mavjud. Bu ochiqlik tamoyili, sudyalar faoliyatining har bir qadamini nazorat qilishga va korrupsion harakatlarga nisbatan jamoatchilik e'tiborini jalb etishga xizmat qiladi.

Fransiya tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, u o'zining aralash huquqiy tizimi bilan ajralib turadi: qonun ustuvorligi va sud nazoratining kuchli uyg'unligi mavjud. Fransiya Respublikasining 1958-yilgi Konstitutsiyasiga binoan, sud hokimiyati ijro va qonun chiqaruvchidan mustaqil bo'lib, Yuksak Magistratura Kengashi (Conseil supérieur de la magistrature - CSM) orqali boshqariladi. Ushbu kengash Prezidentga bevosita bo'ysunmaydi va unda sud tizimi xodimlarini tayinlash, malaka baholash va intizomiy choralar belgilash vakolati mavjud[8]. Aynan shu kengash orqali korrupsiyaga qarshi ichki profilaktika mexanizmlari ishga solinadi.

Fransiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi 1993-yildan boshlab tubdan isloh qilindi. Xususan, maxsus sud organi - "Parquet national financier" (Moliyaviy prokuratura) tashkil etildi. Bu organ davlat amaldorlari, jumladan sudyalar, prokurorlar va yuqori martabali xizmatchilar ishtirokidagi korrupsion jinoyatlarni tergov qiladi. Fransiyada o'ziga xos holat shundaki, sud tizimi ichida etik nazorat xodimlari, ya'ni "Magistrat Deontologlari" faoliyat yuritadi. Ular sudyalar va prokurorlarning axloqiy xulq-atvori ustidan nazorat yuritishadi, manfaatlar to'qnashuvini baholaydi va yo'riqnomalar asosida ularni tarbiyaviy suhbatga chorlaydi. Ushbu tizimning samaradorligi

natijasida 2010-yildan boshlab Fransiyada sud tizimiga nisbatan ishonch indeksida ijobiy o‘shish kuzatilgan.

Fransiyada ham shaffoflikka katta e‘tibor qaratiladi. 2013-yilda qabul qilingan “Haqqoniy hayot tarziga sodiqlik to‘g‘risida”gi qonun (Loi relative à la transparence de la vie publique) asosida har bir sudya moliyaviy faoliyati va doimiy yashash manzili to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi[9]. Ushbu deklaratsiyalar parlament nazorati ostida yuritiladi va jamoatchilikka ochiq. Bundan tashqari, sud tizimidagi barcha tayinlovlar, lavozim ko‘tarilishlari, tanlovlar va attestatsiyalar jarayoni CSM portali orqali elektron ko‘rinishda e‘lon qilinadi.

Fransiya tajribasida korrupsiyani oldini olishda o‘quv-metodik tadbirlar ham alohida o‘rin tutadi. Har yili barcha sud xodimlari “École nationale de la magistrature” (Milliy sud maktabi)da axloqiy tarbiya, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, favqulodda vaziyatlarda xatti-harakat etikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslaridan o‘tadi. Bu kurslar “deontologik kompetensiya”ni amalda joriy qilishga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytganda, AQSh va Fransiya tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi murakkab huquqiy, axloqiy va texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Har ikki davlatda ham jazolashdan ko‘ra, oldini olish, monitoring qilish va ochiqlik tamoyillariga asoslangan yondashuv ustuvor hisoblanadi. Ularning tajribasi O‘zbekiston sud tizimini isloh qilishda institutlarni mustahkamlash, jamoatchilik ishonchini tiklash va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bo‘yicha muhim yo‘nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Germaniya va Singapur davlatlari sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha turli sivilizatsion, tarixiy va boshqaruv modeliga ega bo‘lsalar-da, har ikkisi samarali huquqiy, axloqiy va ma‘muriy mexanizmlarni uyg‘unlashtirgan. Bu davlatlarning tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashish faqat qonunlar bilan emas, balki institutsional madaniyat, shaxsiy javobgarlik, axloqiy me‘yorlar va davlat boshqaruvi falsafasi bilan mustahkamlangan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Germaniyada sud tizimi federativ boshqaruv tizimi asosida tashkil etilgan bo‘lib, u federal va yerli sudlardan iborat ko‘p pog‘onali tizimni o‘z ichiga oladi. Sud hokimiyati Germaniya Konstitutsiyasining 92–104-moddalarida alohida bo‘g‘in sifatida e‘tirof etilgan. Ayniqsa, 1951-yilda tashkil etilgan Federal Konstitutsiyaviy sud (Bundesverfassungsgericht) korrupsiyaga qarshi kurashishdagi eng muhim vakolatli organlardan biridir [10]. Bu sud nafaqat davlat organlari faoliyatini konstitutsiyaga muvofiqligini baholaydi, balki sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlash, sudyalardan noqonuniy bosimlarga qarshi kafolatlar yaratishda ham markaziy o‘rin egallaydi.

Germaniyada korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy omili – bu shaffoflik va fuqarolik mas‘uliyati tamoyillaridir. 1997-yilda qabul qilingan “Federal Fuqarolik Xizmati To‘g‘risida”gi qonun (Beamtenstatusgesetz) barcha sudyalarni davlat xizmatida bo‘lgan mansabdorlar sifatida javobgarlik doirasiga olib kiradi. Bu qonun asosida har bir sudya moliyaviy holati, qarindoshlik aloqalari va xizmat faoliyati bo‘yicha o‘z holatini yozma tarzda deklaratsiya qilishi kerak. Shuningdek, Federal sud kengashi (Richterwahlausschuss) sudyalarni tayinlash va nazorat qilish bo‘yicha mustaqil vakolatga ega bo‘lib, bu organ sudyalarni siyosiy ta‘sirdan himoyalaydi.

Germaniya sud tizimida korrupsiyaning oldini olishda maxsus axborot tizimlari – masalan, Justizportal des Bundes und der Länder orqali har bir sud qarorining ochiq holatda e‘lon qilinishi, fuqarolar va jamoatchilik vakillarining sud jarayonlarini monitoring qilishi uchun sharoit yaratadi [11]. Bu portallar orqali sudyalarning faoliyatining ochiqligi, qarorlarning asoslanganligi, shuningdek, ularning malaka ko‘rsatkichlari ham kuzatib boriladi. Germaniya tajribasi, shuningdek, shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat xizmatidagi halollik, davlat boshqaruvidagi byurokratik standartlar va mustahkam ma‘naviy qadriyatlar muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, Germaniyada sud tizimi xodimlari uchun maxsus etik kodekslar mavjud bo‘lib, ular nafaqat qoidalarga amal qilishni, balki shaxsiy fazilatlar - masalan, vijdon, betaraflik, halollik, hamdardlik va mulohazakorlikni doimiy takomillashtirishni ham nazarda tutadi. Bu etika qoidalari har bir sudya va sud xodimi tomonidan majburiy o‘rganiladi, har yili ularning malaka

oshirish dasturiga kiritiladi. Axloqiy buzilish holatlari yuzaga kelganda, bu holatlarning oldini olish uchun ichki tekshiruvlar tashkil qilinadi, intizomiy choralar muqarrar belgilanadi.

Endi e'tiborimizni Osiyo mintaqasida eng yirik moliyaviy markazlardan biri bo'lgan Singapurga qaratamiz. Singapur – dunyoda eng past korrupsiya ko'rsatkichiga ega davlatlardan biri bo'lib, bu borada Transparency International reytingida doimiy ravishda birinchi o'ntalikdan o'rin oladi. Bunga erishishdagi asosiy omillardan biri – bu sud tizimining mustaqilligi, sud xodimlari faoliyati ustidan qat'iy nazorat va fuqarolik jamiyatining faol ishtirokidir.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy institutsional mexanizmi - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus byuro (Corrupt Practices Investigation Bureau - CPIB) hisoblanadi [12]. Bu tashkilot 1952-yilda tashkil etilgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri Bosh vazirga bo'ysunadi va sud tizimi xodimlari, prokurorlar, hukumat amaldorlari ustidan tekshiruv yuritadi. CPIB'ning o'ziga xos jihati shundaki, u har qanday shubha asosida, hatto jamoatchilik xabarlari asosida ham tekshiruv boshlashi mumkin va bu jarayon sudyani lavozimidan chetlatishgacha olib borishi mumkin.

Singapurda korrupsiyani oldini olishda ta'lim va axloqiy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Sudyalar va sud tizimida ishlovchi har bir xodim Singapore Judicial Collegeda maxsus yillik trening va malaka oshirish kurslarida qatnashadi. Ushbu treninglar “manfaatlar to'qnashuvi”, “etika xatarlarini baholash”, “sudya axloqi” kabi modullarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, har yili “Judicial Conduct Report” nashr etiladi, unda o'tgan yilda sodir bo'lgan intizomiy holatlar, xatoliklar va CPIB tomonidan ko'rilgan choralar ochiq ko'rinishda yoritiladi [13].

Singapurda shuningdek, “Public Service Leadership Programme” orqali sud tizimida ishlayotgan barcha davlat xizmatchilari uchun moliyaviy xatti-harakat monitoringi joriy etilgan. Har bir sudya va yuqori martabali xodim o'zining har oygi xarajatlar hisobotini davlat komissiyasiga taqdim etadi. Bu tizim ortiqcha moliyaviy harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi va yashirin daromad manbalarini aniqlashga imkon beradi.

Singapur tajribasining eng diqqatga sazovor jihati shundaki, bu davlatda korrupsiyaga nisbatan “nol toqat” siyosati amalda qo'llaniladi. Hatto eng kichik miqdordagi pora yoki etik qoidabuzarlik aniqlanganda, sudya nafaqat lavozimidan chetlatiladi, balki jinoiy javobgarlikka tortiladi. Singapur Oliy sudining konstitutsiyaviy mustaqilligi, CPIB'ning to'la vakolati va ommaviy axborot vositalarining ochiqligi tufayli korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat siyosiy ixtiyor, balki huquqiy va madaniy normalarning birlashmasiga aylangan.

Umumiy qilib aytganda, Germaniya va Singapur tajribasi sud tizimida korrupsiyani bartaraf etish uchun nafaqat kuchli qonunchilik, balki davlat xizmatida halollik madaniyatini qaror toptirish, ochiq axborot tizimlarini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvi va etik mezonlarga amal qilishni ta'minlovchi samarali mexanizmlarni joriy etgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun o'z huquqiy va institutsional infratuzilmasini mustahkamlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yaponiya tajribasi sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida o'ziga xos huquqiy, madaniy va ma'muriy yondashuvlarning uyg'unligini aks ettiradi. Boshqa davlatlardan farqli ravishda, Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat qonuniy vositalar, balki qadimiy an'analar, axloqiy tamoyillar, jamoaviy mas'uliyat hissi va kasbiy madaniyatga asoslangan mustahkam ijtimoiy mexanizmga tayanadi. Aynan shu sababli Yaponiyada sud tizimi korrupsiya darajasi bo'yicha dunyoda eng ishonchli va samarali tizimlardan biri hisoblanadi.

Yaponiya Konstitutsiyasining 76–82-moddalari sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlaydi. Unda sudlar mustaqil, faqatgina Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysunuvchi organlar sifatida belgilangan [14]. Yaponiyada sud hokimiyati uch pog'onali tuzilma asosida ishlaydi: tuman (chiqish) sudlari, apellyatsiya sudlari va Oliy sud. Aynan Oliy sud (Saikō-Saibansho) korrupsiyaga qarshi kurashish va sud tizimining shaffofligini ta'minlashda nazorat va strategik rahbarlik funksiyasini bajaradi.

Sud tizimida korrupsiyani oldini olishning asosiy elementi – bu sudyalarni tanlash, tayinlash va ularning ustidan fuqarolik nazoratini ta'minlash mexanizmlaridir. Yaponiyada sudyalar ikki yo'nalishda shakllantiriladi: professional (doimiy) sudyalar va jamoatchilik asosida ishtirok etuvchi lay-person sudyalar (Saiban-in Seido). Sudyalarni tayinlash bo'yicha maxsus institut – Judicial

Appointment Advisory Council mavjud bo‘lib, u Bosh vazir huzurida mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Ushbu kengashga faqat uzoq yillik kasbiy tajribaga ega bo‘lgan yuridik mutaxassislar, akademiklar va jamiyat arboblari a‘zo bo‘lishi mumkin. Bu sudyalarni tanlashda siyosiy yoki manfaatdor guruhlarning aralashuvini cheklashga xizmat qiladi.

Yaponiyada korrupsiyani aniqlash va oldini olish bo‘yicha alohida mustaqil idora – Board of Audit and Inspection ham faoliyat yuritadi. Bu organ sud tizimida va boshqa davlat muassasalarida moliyaviy intizomga rioya etilishi, noqonuniy to‘lovlar, shubhali operatsiyalar yoki manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tekshiradi. Har yili u tomonidan tayyorlanadigan hisobotlar parlament va jamoatchilikka taqdim etiladi. Bu holat Yaponiyada korrupsiya borasida eng muhim nazorat shakli - hisobotdorlik va ochiqlik prinsipiga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Yaponiyada sudyalar faoliyatini baholash bo‘yicha alohida tizim mavjud bo‘lib, u “Sudyalar samaradorligini ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimi” deb nomlanadi. Bu tizimda sud qarorlarining asosligi, protsessual xatoliklar, tarfkashlik alomatlar, da‘vogar va javobgarlar fikri va ommaviy axborot vositalaridagi sharhlar asosida sudyalar reytingi yuritiladi. Har yili bu reyting bo‘yicha ijobiy va salbiy baholangan sudyalar uchun malaka oshirish yoki intizomiy chora qo‘llash mexanizmlari ishlatiladi. Shu bilan birga, Yaponiyada sud majlislarining asosiy qismlari ochiq ravishda o‘tkaziladi va Oliy sud portalida barcha qarorlarning to‘liq matni jamiyat uchun ochiq tarzda taqdim etiladi.

Korrupsiyaga qarshi madaniyat Yaponiyada shaxsiy axloqiy javobgarlik, “g‘urur va obro” tushunchasi, hamda davlat xizmatining fidoyilikka asoslangan falsafasi bilan chuqur bog‘langan. Bunga “Giri” va “On” tushunchalari asos bo‘ladi:

“Giri” – bu ijtimoiy va kasbiy burchni sidqidildan ado etish, “On” esa jamiyat yoki davlat bergan ishonchga sadoqat bilan javob qaytarish. Bu qadriyatlar tufayli yapon sudyalari korrupsiya yoki axloqiy xatoga yo‘l qo‘ysa, u holda nafaqat lavozimidan, balki jamoatchilik hurmatidan ham mahrum bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yapon sud tizimida pora yoki manfaatlar to‘qnashuvi deyarli kuzatilmaydi.

Yaponiyada sudyalar uchun doimiy tarzda amalga oshiriladigan axloqiy treninglar mavjud. Har yili Oliy sud tomonidan tashkil etiladigan “Professional Conduct Week” doirasida sudyalar, prokurorlar va yuridik oliy o‘quv yurtlari professorlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi muhokamalar, ma‘ruzalar va simulatsion treninglar o‘tkaziladi. Treningda, ayniqsa, etik dilemma holatida qanday harakat qilish, manfaatlar to‘qnashuvini qanday aniqlash va fuqarolar bilan norasmiy munosabatlarni qanday cheklash kerakligi muhokama qilinadi. Bu holatlar real misollar asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, Yaponiyada korrupsiya xavfiga qarshi muhim mexanizmlardan biri - bu intizomiy sud tizimi hisoblanadi. Oliy sud huzuridagi Maxsus Intizomiy Kengash, aniqlangan etik buzilishlar va axloqiy normalarga zid harakatlar uchun sudya yoki boshqa yuridik xodimga nisbatan ogohlantirish, hayfsan, lavozimdan chetlatish yoki umrbod davlat xizmatidan chetlatish choralarini belgilaydi. Bu choralar jamoatchilikka ochiq e‘lon qilinadi va bu orqali boshqa xodimlar uchun kuchli profilaktik ta‘sir kuchi yaratiladi.

Yaponiyada shuningdek, davlat xizmatidagi barcha xodimlar, shu jumladan sudyalar uchun moliyaviy faollik deklaratsiyasi majburiydir. Har yili har bir sudya va uning oila a‘zolari o‘z daromadlari, investitsiyalari, mol-mulki va qarzlarini batafsil tarzda elektron shaklda Davlat bosh nazorat komissiyasiga topshiradi.

Ushbu ma‘lumotlar davlat resurslarida arxiv qilinadi va korrupsiyaviy xavf yuzaga kelganda tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilinsa, Yaponiya tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida eng yuqori natijalarga ega bo‘lgan davlatlardan biri sifatida tan olinadi. Bunda qonunchilikning mustahkamligi, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi, jamoatchilik nazorati, axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi, shaffoflik tamoyillari va davlat xizmatining kasbiy yuksakligiga bo‘lgan talab asosiy o‘rin egallaydi. Ushbu modelni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda eng muhim jihatlar - bu sudyalarni tanlash tizimining ochiqligi, fuqarolik nazoratining institutsional shakllari va etika madaniyatining mustahkamlanishidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2020–2023 yillar uchun belgilangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi” doirasida sud tizimi alohida e’tibor markazida turgani bejiz emas. Strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu sudyalarning mustaqilligini ta’minlash orqali ularni tashqi bosimlardan va ichki manfaatlar to‘qnashuvlaridan holi holda ish olib borishini kafolatlashdir. Biroq amaliyotda kuzatilayotgan muammolar – sudyalarni tanlashda adolat tamoyilining doimiy ravishda ta’minlanmasligi, intizomiy ishlar yuzasidan hisobdorlik mexanizmining susayganligi, sudyalarning daromadlari va moliyaviy manfaatlari bo‘yicha ochiqlikning past darajada ekani – bu strategiyaning to‘liq amalga oshishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

Bugungi kunda sudyalarning axloqiy tayyorgarligi, ularning kasbiy halollik darajasi va huquqiy ongini oshirish borasida tizimli yondashuv yetishmayapti. Mamlakatda “Sudyalar oliy kengashi” faoliyat yuritayotgan bo‘lsada, bu kengashning vakolatlari va imkoniyatlari hali to‘liq shakllanmagan. Xususan, sudyalarni baholash mezonlari, ularning faoliyati bo‘yicha ochiq audit mexanizmlarining mavjud emasligi sababli, halollik darajasini objektiv baholash imkoniyati cheklangan. Natijada, korrupsiyaviy xatti-harakatlar yuzasidan bevosita yoki bilvosita aralashgan sudyalar ham javobsizlik muhitidan foydalanishga urinmoqda. Bu esa, sud hokimiyatining asosiy printsiplari – mustaqillik va odillik tamoyiliga putur yetkazadi.

Yana bir muhim jihat shuki, korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli texnologiyalar hali yetarli darajada sud tizimiga joriy etilmagan. Sud qarorlarining to‘liq va avtomatik tarzda “Sud qarorlarining yagona reyestri”da e’lon qilinmasligi, ularni izlashdagi texnik to‘siqlar, ayrim sudya faoliyatlari haqida ochiq statistika mavjud emasligi – bu korrupsion holatlarni yashirish uchun qulay sharoit tug‘diradi. Bu borada Estoniya, Singapur va Gruziya tajribasiga murojaat qilinsa, korrupsiyaga qarshi kurashni raqamli boshqaruv orqali ancha kuchli va shaffof qilish imkoniyati mavjudligi isbotlangan. O‘zbekistonda ham mazkur tajribalarni sinchiklab o‘rganib, sud tizimiga joriy etish orqali samara olish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni sud tizimiga joriy etish korrupsiyana oldini olishda katta rol o‘ynashi mumkin. Buni yorqin dalili sifatida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor[15].” – deb aytgan so‘zlari ham buni amalda isbotlaydi.

Shuningdek, halollik madaniyati faqat davlat institutlari darajasida emas, balki jamiyat ongida ham shakllanishi zarur. Fuqarolar sud tizimiga nisbatan ishonchsiz bo‘lsa, korrupsiya haqida xabar berishga, huquqini himoya qilishga ham jur‘at etmaydi. Shunday ekan, O‘zbekistonda fuqarolik nazoratining institutsional asoslarini mustahkamlash, masalan, sud jarayonlarini jamoatchilik vakillari, NNT, OAV vakillari ishtirokida monitoring qilish tizimini shakllantirish orqali sud tizimi ustidan doimiy ijtimoiy bosimni saqlab turish kerak.

Demak, bugungi kunda sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud huquqiy asoslar yetarli bo‘lishi mumkin, biroq ularning amalda ishlashini ta’minlaydigan mexanizmlar, monitoring, axloqiy nazorat va raqamli audit tizimlarining kuchsizligi bu islohotlarning samarasini cheklab qo‘yadi, deb aytish mumkin. Shu bois, birinchi navbatda muammoni to‘liq anglash, keyin esa zamonaviy yondashuvlar asosida institutlararo hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy ishonchni tiklash dolzarb vazifadir.

Darvoqe, sud tizimining korrupsiyadan holi bo‘lishi uchun eng avvalo ta’minlanishi lozim bo‘lgan asosiy prinsip – bu sud hokimiyatining to‘laqonli mustaqilligidir. Mustaqil sud – bu nafaqat qonunlar asosida qaror qabul qiladigan tizim, balki tashqi bosim, siyosiy aralashuv, ijroiya hokimiyat ta’siri va korporativ manfaatlardan xoli ishlaydigan organ hamdir. Afsuski, O‘zbekiston sud tizimi tarixiy jihatdan mustaqillik masalasida doimiy bahs va tanqidlar markazida bo‘lib kelmoqda. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasini takomillashtirishda sud hokimiyatining institutsional mustahkamligi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi kerak.

Eng muhim institutlardan biri – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi hisoblanadi. Ushbu kengash sudyalarni tayinlash, ularni intizomiy javobgarlikka tortish va faoliyatini baholashda

markaziy rol o'ynaydi. Biroq, amalda kengash faoliyatining shaffofligi va jamoatchilik oldidagi ochiqligi yetarli darajada emas. Masalan, kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar keng jamoatchilik uchun tushunarli asoslar bilan yoritilmaydi, sudyalarni tanlashda ochiq tanlov jarayonlarining yo'qligi, baholash mezonlarining subyektivligi bu organ faoliyatining samaradorligiga putur yetkazmoqda. Shu bois, sudyalarni tayinlash, rotatsiya qilish va ularni kasbiy baholash tizimiga mustaqil va professional ekspert komissiyalarini jalb qilish dolzarb vazifadir.

Bundan tashqari, sud tizimining moddiy-texnik bazasi va moliyaviy mustaqilligi ham korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim kafolatidir. Sudyalar faoliyatida mehnat sharoitlari, ish haqi, ijtimoiy ta'minot, xizmat uyi, transport kabi infratuzilma omillari ularning halollik tamoyiliga sodiqligiga bevosita ta'sir qiladi.

Yevropa Kengashi tomonidan tavsiya etilganidek, sud hokimiyati xodimlarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanmagan mamlakatlarda korrupsiya xavfi yuqori bo'ladi. Shu sababli, O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilinayotgan "Sudyalar faoliyatini moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi qarorlar amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, ularning ijrosini monitoring qiluvchi mexanizmlarni ham ishlab chiqish lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha institutsional kafolatlardan yana biri – sudyalar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimidir. Ayni vaqtda bu boradagi huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning ta'sir kuchi zaif. Masalan, sud jarayonlarini videoyozuvga olish, ularni internet orqali ochiq e'lon qilish, sudlar faoliyati yuzasidan mustaqil reytinglar tuzish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining monitoring hisobotlari asosida parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha maxsus platformalar yaratilmagan. Shunday bo'lsada, ushbu yondashuv Germaniya, Kanada va Estoniya kabi davlatlar tajribasida o'zini oqlagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim elementlardan biri – bu sudyalar axloqiy kodeksining amaliy joriy etilishi va unga qat'iy rioya etilishini ta'minlovchi mustaqil organ – etik komissiyalar faoliyatidir.

Bu komissiyalar har bir sudyalik holati yuzasidan mustaqil tekshiruvlar o'tkazishi, sudyalarning manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan o'z vaqtida bayonot berishini nazorat qilishi, hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy imijiga oid tahlillarni olib borishi kerak. Bunday yondashuvlar Singapur va Yaponiyada allaqachon samarali tarzda amaliyotga joriy qilingan bo'lib, ularning tajribasi O'zbekiston uchun ayni muddao bo'lishi mumkin.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashda erishilgan natijalarni barqaror qilish uchun innovatsion, tizimli va davriy yangilanishga asoslangan yondashuvlar zarur. Chunki korrupsiya – bu doimiy evolyutsiyada bo'lgan salbiy hodisa bo'lib, u faqat bir yo'nalishdagi kurash orqali emas, balki har tomonlama, ko'p bosqichli va integratsiyalashgan strategiyalar orqali bartaraf etiladi. Shu bois, O'zbekiston sud tizimida ham bu borada uzoq muddatli, institutsional asoslangan va texnologik yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiyalash zarur. Bugungi kunda "E-sud" tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, u hali barcha sud jarayonlariga to'laqonli tatbiq etilmagan. Jumladan, sud protsesslarini to'liq raqamlashtirish, sudyalarning faoliyati bo'yicha real vaqtli monitoring tizimini yaratish, shikoyatlar va korrupsiya haqidagi signal bo'yicha avtomatik ishlov beradigan sun'iy intellektga asoslangan algoritmlarni joriy qilish bugungi kun talabidir. Xususan, Singapurda bu kabi tizimlar "Predictive justice" g'oyasiga asoslanadi: u erda ma'lumotlar bazasi orqali aniq muayyan holatdagi korrupsion xavfli qarorlar oldindan prognoz qilinadi. Bunday yondashuvni O'zbekistonda ham joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak. OECD va GRECO tashkilotlarining tavsiyalarida keltirilishicha, milliy sud tizimlari uchun maxsus xalqaro baholashlar va mustaqil ekspert xulosalari asosida har yili ichki islohotlar rejalashtirilishi talab etiladi. O'zbekistonda bu borada hozircha "Ichki audit" tushunchasi sud tizimiga to'liq joriy qilinmagan. Biroq bu institut ish faoliyatini baholashda muhim vosita bo'lishi mumkin. Jumladan, har bir viloyat bo'yicha sud faoliyatining korrupsiyaviy risk darajasi bo'yicha "xaritasi" tuzilsa, bu ochiqlikni oshiradi va aniq hududlar kesimida strategik chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, inson resurslari siyosatida yangiliklar kiritilishi lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashda eng muhim omillardan biri – bu sudyalarni tayyorlash, ularning tanloviga zamonaviy psixologik va axloqiy mezonlar joriy etishdir. Hozirda bu borada faqat huquqiy bilimlarga asoslangan baholash yetarli emas. Sudyalarning kasbiy yo‘nalishga bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy munosabati, stressga chidamliligi, halollik darajasini aniqlovchi testlar, shaxsiy axloqiy profil va ijtimoiy faoliyati – bularning barchasi tanlovda asosiy mezon bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda.

To‘rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo‘llaridan biri bu - jamoatchilik ishtirokini huquqiy institut darajasiga ko‘tarishdir. O‘zbekiston tajribasida fuqarolik jamiyati institutlari (NNT, blogerlar, ommaviy axborot vositalari) faoliyatida hali ham to‘liq erkinlik yo‘q. Sud tizimi haqida tanqidiy chiqishlar, jurnalistik surishtiruvlar, ommaviy axborot vositalari orqali korrupsiya holatlarining yoritilishi aynan jamiyatda mas‘uliyatli va qat‘iy fuqarolik nazoratini kuchaytiradi. Bu esa bevosita sud hokimiyati halolligini tiklashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, barqaror natijaga erishish uchun qonunchilik doimiy takomillashib borishi kerak. Ayniqsa, “Sudyalarning to‘g‘risida”gi Qonun, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Jinoyat kodeksining 210 – 212-moddalarini zamonaviy xavf-xatarlar asosida qayta ko‘rib chiqish, tajovuzkor korrupsiyaviy harakatlar uchun jazo mexanizmlarini kuchaytirish, qayta jinoyat sodir etgan sudya yoki prokurorlarni umrbod kasbidan chetlatish mexanizmlarini qonunchilikda aniq ifodalash lozim. Chunki qonun qat‘iy bo‘lmas ekan, amalda ham ishonch hosil qilish mushkul bo‘ladi.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurash va uni oldini olish masalalari yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Fuqarolik protsessual kodeksining 276-moddasi, Jinoyat protsessual kodeksining 426-moddasi, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 175-moddasiga sud majlislarining to‘liq audio-video yozuvini majburiy yuritish talabi bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi protsessual qonunchilik hujjatlarining tegishli moddasini quyidagi tartibda to‘ldirilishi kerak:

Sud majlisleri sud majlisi ishtirokchilarining roziligidan qat‘i nazar to‘liq audio va yoki video tarzda yozib olinadi. Ushbu yozuvlar sud arxividagi elektron tizimda eng kamida 2 yil saqlanadi.

Audio va yoki video yozuv bilan sud majlisi ishtirokchilari tanishishi mumkin.

Asos: Fransiya va AQSh tajribasi, UNODC “Judicial Integrity” tamoyillari.

2. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga “Sud organlari faoliyatining ochiqqligi va shaffofligi to‘g‘risida”gi yangi modda kiritish qilish maqsadga muvofiq.

Ushbu moddada quyidagilar nazarda tutiladi:

Sud xodimlari o‘z faoliyatida ochiqqlik va shaffoflikni qonunda belgilangan tartibda ta‘minlashlari shart.

Ushbu majburiyatni bajarmaslik qonunda belgilagan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

3 “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga “manfaatdor shaxslarning haqliligi prinsipi” nomidagi 17¹-modda modda kiritish qonundagi ba‘zi bir bo‘shliqlarni oldini olishi mumkin. Bunda ushbu modda quyidagi mazmunda bo‘ladi:

Agar shaxslar sudga elektron tartibda murojaat qilganda sudlarning elektron axborot tizimlarida biron bir xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, sudning ma‘sul xodimi tomonidan ushbu xatolik to‘g‘irilanishi lozim. Agar to‘g‘rilashning imkoni bo‘lmasa, ushbu murojaatlar tegishli shaxslarga qaytariladi.

4. Fuqarolarning jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizligini ta‘minlash, sud tizimida korrupsion holatlarni kelib chiqishi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini ta‘minlash, fuqarolar tomonidan ular foydalanishi mumkin bo‘lgan elektron axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha maxsus qo‘llanmalar, turli xil profilatik tadbirlarni tashkil etilishi, shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida ta‘limning umumiy o‘rta ta‘lim bosqichlarida huquq bo‘yicha umumiy fanlar o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish taklif qilinadi.

5. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda amalga oshirilgan har bir protsessual harakat yuzasidan ularning adolat axborot kompleksidagi shaxsiy kabineti orqali to‘liq xabardor qilinishini

ta'minlash maqsadga muvofiq. Bu esa bevosita sudlarda amalda foydalanilayotgan elektron axbarot tizimlari bilan integriyatsiyalash orqali amalga oshirilishi mumkin.

6. Sud tizimida xodimlarga mehnatiga haq to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki xodimlar ortiqcha ish yuklamalarini bajarganligini uchun ularga adolatli haq to'lanmasligi ham korrupsion holatlarni keltirib chiqishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda to'lanadigan ish haqi bir oy davomida jami ko'rilgan ishlar va ularning murakkablik darajasidan kelib chiqib qayta hisoblanishi, ko'riladigan ishlarning murakkab yoki soddaligiga qarab ularni ball tizimida kategoriyalash hamda ushbu kriteriyalardan foydalangan holda sud xodimlarga adolatli ish haqi to'lab borish, ularga nisbatan bo'ladigan adolatsizlikni oldini olgan bo'lar edi.

7. Sud xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilayotganda ularning korrupsiyaga moyiligini tekshirish maqsadida ayrim tartib-taomillarni joriy etish. Gollandiya va Yaponiy tajribalari asosida sud xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilayotganda ularning oldindan korrupsiyaga moyiligini tekshirish maqsadida ularning ustida turli-xil situation holatlarni tashkillashtirish, psixologik test sinovlarini joriy etish korrupsiya holatlarining kelib chiqishini oldini olishga xizmat qiladi.

8. Sudlar tomonidan foydalanilayotgan axbarot tizimlarini su'niy intellekt yordamida to'liq raqamlashtirish. Sud xodimlari tomonidan foydalanilayotgan "Adolat" axborot tizimlari kompleksi, "E-xsud" tizimi va E-sud kabi axbarot tizimlarida olib borilayotgan chaqiruv qog'ozlarini, mulkiy tusdagi talablarga doir ijro varaqalarini va sud hujjatlarini tegishli shaxlarga yuborilishini avtomat shaklda amalga oshirish orqali ortiqcha ish yuklamalarini kamaytirish va bu sohada korrupsiya omil bo'lmish inson omilidan xolos qilish maqsadga muvofiq.

9. Sudlarda sudyalarga fuqarolar tomonidan ularning faoliyatiga baho berish imkoniyatini yo'lga qo'yilishi korrupsiyani oldini olishda ularni sergarlikka tortishi mumkin. Bunda sudga keluvchi shaxslar sudyalari va sud xodimlarining faoliyatiga ijobiy yoki salbiy baholash orqali ularning qanchalik ishlarni to'g'ri, adolatli va qonuniy hal qilishi, shuningdek, ularning qay darajada korrupsiyaga moyiligini aniqlashga imkon beradi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ball to'plagan sud xodimlariga nisbatan qo'shimcha ustama haqlari berilishi, agar natijalar salbiy bo'lsa esa ularga nisbatan xizmat yoki boshqa turdagi tekshiruvlarni joriy etilishi ham muommoga yechim bo'la olishi mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari bazasi, 01.05.2023.//<https://lex.uz/docs/6445145>. (Constitution of the Republic of Uzbekistan: 01.05.2023 // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. <https://lex.uz/docs/6445145>)
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419son // Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi, <https://lex.uz/docs/3107036>. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Combating Corruption", No. LRU-419, January 3, 2017 // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. <https://lex.uz/docs/3107036>).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-son Farmoni. "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 29-iyun // <https://president.uz/uz/lists/view/2542>. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6013 "On Additional Measures to Improve the Anti-Corruption System", June 29, 2020. <https://president.uz/uz/lists/view/2542>)
4. Adliya vazirligining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomi. // <https://lex.uz/docs/5101620>. (Regulation of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan "On Anti-Corruption Expertise of Normative Legal Acts and Their Drafts" // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. <https://lex.uz/docs/5101620>).
5. GRECO. "Evaluation Report on Judicial Integrity and Corruption Risk Assessment" // Strasbourg, 2021. – <https://rm.coe.int/greco-report-uzbekistan-2021>.

6. The Constitution of the United States of America, Article III // U.S. National Archives. – Washington D.C., 1787.
7. Ethics in Government Act of 1978 // Public Law 95–521, United States Congress, Washington D.C.
8. Constitution de la République Française du 4 octobre 1958 // Légifrance. – www.legifrance.gouv.fr.
9. Loi n° 2013-907 du 11 octobre 2013 relative à la transparence de la vie publique // Journal officiel de la République française, 12 octobre 2013- <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000028056315>.
10. Bundesverfassungsgerichtsgesetz (BVerfGG) – Federal Constitutional Court Act // www.gesetze-im-internet.de
11. Beamtenstatusgesetz (BeamtStG) – Federal Civil Service Status Act, 2009 // Bundesministerium des Innern, für Bau und Heimat. – Berlin.- https://natlex.ilo.org/dyn/natlex2/r/natlex/fe/details?p3_isn=52842.
12. The Corrupt Practices Investigation Bureau Act (CPIB Act) // Singapore Statutes Online, Ministry of Law. – Singapore, 1952.
13. Judicial Conduct Report – Supreme Court of Japan. – Annual Publication, 2022 edition // www.courts.go .
14. The Constitution of Japan, Chapter VI: The Judiciary, 1946 // Prime Minister of Japan and His Cabinet official website – www.kantei.go.jp.
15. Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020-yil 24yanvar//<https://president.uz/oz/lists/view/4057>.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.